Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxonov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes sub’ektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish.....	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH KOMPLEKSINING HOZIRGI HOLATI VA ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Muxibova Guli Yarkinovna

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
 "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrası
 guli.mukhibova@mail.ru
 ORCID: 0009-0007-4943-4853

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati, sohadagi asosiy rivojlanish tendensiyalari va amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Qurilish sanoatining iqtisodiyotdagi ulushi ortib borayotgan bir paytda, bu yo'nalishda samaradorlikni oshirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va investitsion muhitni takomillashtirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot davomida sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar va amaliy tajribalarga asoslanilgan holda muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqola qurilish tashkilotlari faoliyatini samarali boshqarish, shartnoma narxlarini optimallashtirish va sifat menejmenti tizimlarini kuchaytirish masalalarini ham yoritadi.

Kalit so'zlar: qurilish sanoati, elektr energiyasi, qurilish texnologiyalari, investitsiyalar, islohotlar, energiya samaradorligi, qurilish tashkilotlari, shartnoma narxlar, sifat menejmenti, milliy iqtisodiyot.

Abstract: This article examines the current state of the construction sector in the Republic of Uzbekistan, its key development trends, and the outcomes of ongoing reforms. As the construction industry plays an increasingly important role in the national economy, the study focuses on identifying mechanisms to improve operational efficiency, implement modern construction technologies, and optimize energy consumption. The research is based on regulatory documents, statistical data, and practical experience to analyze existing challenges and propose relevant solutions. Special attention is paid to contract pricing optimization, quality management systems, and enhancing the performance of construction enterprises.

Key words: construction industry, electricity, construction technologies, investments, reforms, energy efficiency, construction organizations, contract prices, quality management, national economy.

Аннотация: В данной статье рассматривается текущее состояние строительного комплекса Республики Узбекистан, ключевые тенденции его развития, а также результаты проводимых реформ. Учитывая возрастающую роль строительной отрасли в национальной экономике, исследование направлено на выявление эффективных механизмов повышения производительности, рационального использования энергетических ресурсов и внедрения современных строительных технологий. В работе использованы нормативно-правовые документы, статистические данные и практический опыт для анализа существующих проблем и разработки соответствующих предложений. Особое внимание уделено вопросам оптимизации договорных цен, совершенствования систем управления качеством и повышения эффективности строительных организаций.

Ключевые слова: строительная отрасль, электроэнергия, строительные технологии, инвестиции, реформы, энергетическая эффективность, строительные организации, договорные цены, управление качеством, национальная экономика.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti turli sohalarda o'sish va rivojlanishni ko'rsatmoqda, ulardan biri – qurilish sanoatidir. Ushbu soha mamlakatning milliy iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi va uning barqaror rivojlanishi iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Qurilish sektori nafaqat infratuzilma va uy-joy qurilishida, balki sanoat va ijtimoiy sohalarda ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda qurilish sanoati so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarga uchragan va bu o'zgarishlar yurtimizning barcha hududlarida yangiliklar va zamonaviy infratuzilmaning jadal rivojlanishiga olib kelgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasidagi qurilish kompleksining hozirgi holati va uning asosiy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Qurilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilayotgan yangi strategiyalar sektorning yanada rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, qurilish sohasida



mavjud bo'lgan muammolar, kamchiliklar va ularni hal qilish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. Maqolada yurtimizdagi qurilish sanoatining zamonaviy holati, u bilan bog'liq iqtisodiy va tashkiliy masalalar, shuningdek, sohani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari batafsil tahlil etiladi. Bu, o'z navbatida, qurilish sektorining kelgusi rivojlanishiga qo'shilgan hissani va uning milliy iqtisodiyotdagi rolini yanada oshirishga imkon yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI


Qurilish sanoatining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini o'rganishda ko'plab ilmiy tadqiqotlar, tahlillar va hisobotlar mavjud. O'zbekiston Respublikasida qurilish sohasining iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish uchun mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar keng qo'llaniladi.

Mamlakatimizning jadal rivojlanishi va iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda milliy iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy rivojlanishning umumiy dinamikasi turli tarmoqlar va ularning o'zaro munosabatlariga bog'liq. Jumladan, mamlakat iqtisodiy kompleksining quyidagi asosiy tarkibiy qismlari – sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa, savdo – o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va rivojlanish tendensiyalari alohida ahamiyatga ega.

Qurilish sanoati milliy iqtisodiyotda yetakchi o'rin tutadi. 2023-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotida qurilish sohasining ulushi 6 foizni, agrar sektordagi elektr energetikasi ob'ektlari qurilishi esa 1,57 foizni tashkil etgan. Ushbu sohaning shakllanishi va barqaror rivojlanishi fondni shakllantirish funksiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi.

So'nggi o'n yilliklar davomida qurilish sanoati institutsional, tashkiliy, boshqaruv, huquqiy va iqtisodiy munosabatlar sohalarida sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Islohotlarning asosiy yo'nalishi mulkchilikning turli shakllarini yaratish va rivojlantirishga qaratildi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat va nodavlat mulk shaklidagi qurilish korxonalari faoliyat yuritmoqda. Islohotlarning eng muhim natijalaridan biri – davlat, aksiyadorlik, xususiy va qo'shma shakllarni o'z ichiga olgan haqiqiy mulkdorlar sinfining shakllanishidir.


2019–2023-yillarda bajarilgan qurilish ishlari hajmi dinamikasi quyidagi ma'lumotlarda ifodalangan(1-rasm):



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2019-2023 yillarda bajarilgan qurilish ishlari hajmi dinamikasi¹

2023-yilda qurilish ishlari hajmi 27 564,6 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 4,5 foizga oshgan. Shu yili barcha mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 15 219,3 mlrd so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 1,8 baravarga ko'pdir. Asosiy vositalarning qiymati 9 839,9 mlrd so'mga oshgan.

Bajarilgan umumiy qurilish-montaj ishlarining atigi 7,6 foizi davlat sektori hissasiga to'g'ri keladi. Asosiy ish hajmi nodavlat korxonalar (92,4%) tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, ishlarning 49,4 foizi xususiy korxonalar, 29,3 foizi xo'jalik birlashmalari, 9,5 foizi esa qo'shma korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan(2-rasm).



2-rasm. 2023 yilda asosiy kapitalga investitsiyalar²

1 Manba: statistika www.stat.uz

2 Manba: statistika www.stat.uz



2023-yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan 12,1 foizga, bajarilgan qurilish-montaj ishlari esa 17,2 foizga oshgan. Uy-joy fondini ishga tushirish ko'rsatkichi 3,6 foizni tashkil etgan. Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 41,5 trln so'm, markazlashmagan manbalar hisobidan esa 228,4 trln so'mni tashkil etgan.

2023-yil yanvar–dekabr oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan 84,9 trln so'm (24,1%), aholi mablag'lari hisobidan esa 33,3 trln so'm (9,5%) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar yo'naltirilgan. Bu ko'rsatkichlar YalMga nisbatan barqaror saqlanmoqda³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi "Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4464-sonli⁴ qaroriga asosan sohada AKTni joriy etish markazi tashkil etildi. Bu islohotlar sohada shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" PF-6119-sonli⁵ Farmoni bilan tasdiqlanib, qurilish sohasining yangi bosqichga chiqishini ta'minladi. Strategiyada 2025-yilgacha barcha shaharlar va 25 foiz shahar posyolkalari bosh rejalar bilan qamrab olinishi belgilangan. Bu rejalar jamoatchilik fikrini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

O'tgan olti yil ichida jami 1 370 ta shaharsozlik hujjatlari, shu jumladan 202 ta shahar va shaharchalar, 1 168 ta qishloq mahalla fuqarolar yig'inining bosh rejasi ishlab chiqildi. Shuningdek, 537 ta texnik normativ hujjatlar yangilandi yoki qaytadan ishlab chiqildi, 10 ta energiya samaradorlikka oid normativlar esa Yevropa standartlariga moslashtirildi.

Loyiha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish to'liq raqamlashtirilib, "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi" markazi orqali elektron shaklda amalga oshirilib kelinmoqda. Bugunga qadar 30 mingga yaqin loyiha ushbu tizimda ko'rib chiqilib, 7 trln so'mgacha mablag' tejashga erishilgan.

So'nggi olti yilda 360 mingga yaqin uy-joy qurilib, bu ko'rsatkich avvalgi yillarga nisbatan 10 barobarga oshgan. Faqatgina 2017-yildan buyon 326 mingta yangi uy foydalanishga topshirilgan bo'lib, uy-joy bilan ta'minlash darajasi aholi jon boshiga nisbatan 18 foizga oshgan.

Oxirgi uch yilda banklar tomonidan 210 ming oilaga 33 trln so'mlik ipoteka kreditlari ajratilgan, 73 ming ehtiyojmand oilaga esa 1,3 trln so'mlik subsidiya berilgan.

Bozor tamoyillarining joriy etilishi natijasida yuzlab xususiy buyurtmachi kompaniyalar shakllandi. Yig'ma temir-betonli ko'p qavatli uylar quruvchi 11 ta yirik klaster tashkil topdi. Mahalliy tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan sharoitlar sement, gazoblok, kafel va keramogranit ishlab chiqarish hajmini oshirdi, natijada qurilish materiallari narxlari ancha pasaydi.

2023-yilda 60 ming xonadonli ko'p qavatli uylar barpo etildi. Shuningdek, 31 ta hududda "Yangi O'zbekiston" massivlarini barpo etish dasturi boshlanib, minglab fuqarolarga uy-joyga ega bo'lish imkoniyati yaratildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda asosiy ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, rasmiy hukumat qarorlari, sohaga oid strategik dasturlar va ochiq elektron manbalar orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar grafik tahlil, qiyosiy va dinamik usullar asosida tahlil qilinib, qurilish sohasidagi asosiy rivojlanish tendensiyalari va tarkibiy o'zgarishlar aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Taqdim etilgan ma'lumotlar respublikamizda iqtisodiy rivojlanish natijasida makroiqtisodiy barqarorlikning shakllanganini ko'rsatadi. Bunga qurilish sohasida bozor islohotlarini chuqurlashtirish, tarkibiy o'zgarishlar kiritish va boshqaruv usullarini takomillashtirishga qaratilgan hukumat qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilangan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi orqali erishildi.

Prezident qarorlarini amaliyotga tatbiq etish va qurilish sohasini raqobatbardosh tarmoqqa aylantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ular quyidagilardan iborat: qurilish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasi; kapital qurilishni

³ <https://invexi.org/uz/press/investments-in-fixed-capital-for-2022-in-the-republic-of-uzbekistan-amounted-to-about-270-trillion-soums/>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi "Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4464-sonli qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-4523181?ONDATE2=06.02.2024&action=compare>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" PF-6119-sonli Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5130468>



isloh qilish chora-tadbirlari; investitsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom; amaldagi narxlarda bajarilgan ishlar uchun haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizom va boshqa hujjatlar.

Mazkur hujjatlar qurilish sohasida bozor islohotlarini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan bo'lib, ular quyidagilarni nazarda tutadi: qurilish tashkilotlarini xususiyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish; boshqaruv tuzilmalarini dezagregatsiyalash va monopoliyadan chiqarish; pudrat va loyihalash ishlari bozorini shakllantirish; investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslash tizimini takomillashtirish; qurilish sohasida kichik va o'rta korxonalarni tashkil etish va rivojlantirish; yirik va kichik qurilish tashkilotlari faoliyatining uyg'unligini ta'minlash; past quvvatli va rentabellikdan yiroq korxonalarni qayta tashkil etish yoki tugatish; buyurtmachi, pudratchi, loyiha tashkilotlari hamda qurilish materiallari va konstruksiyalar yetkazib beruvchilar o'rtasida shartnoma munosabatlarining yangi shakllarini joriy qilish; foydalanishga tayyor xonadonlar asosida qurilish ishlarini moliyalashtirish va kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish; eng yaxshi pudratchilarni aniqlash maqsadida tender savdolarini samarali tashkil etish; qurilish mahsulotlarining bozor qiymatini baholash hamda amaldagi shartnoma narxlariga asoslangan narx strategiyasini ishlab chiqish; marketing tadqiqotlarini kuchaytirish va potentsial raqobatchilarni aniqlash orqali investorlarni jalb qilish; qurilish obyektlarining sifati, qurilish normalari va qoidalariga muvofiqligi uchun buyurtmachi va pudratchining javobgarligini oshirish.

Hukumat tomonidan belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilishi qurilish sanoatini investitsiyalarni o'zlashtirish, yirik ishlab chiqarish quvvatlarini joriy etish va qurilish-montaj ishlarini bajarish bo'yicha keng ko'lamli imkoniyatlarga ega kuchli tarmoqqa aylantirdi. Qurilish sanoatining rivojlanishi natijasida yengil yuk avtomobillari, elektronika, sanitariya uskunalari, elektron va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar muvaffaqiyatli ishlamoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, logistika va transport infratuzilmasining zamonaviy tizimlarini yaratish bo'yicha ishlar jadal olib borilmoqda. Qurilish sohasi elektr energiyasiga bo'lgan talabni qondirishda murakkab investitsiya masalalarini hal qilishda muhim rol o'ynamoqda.

Yaqin yillarda yangi energiya quvvatlari va elektr uzatish tarmoqlarini yaratish hamda mavjudlarini rekonstruksiya qilish bo'yicha 26 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu borada tezlashtirilgan amalga oshirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar belgilanmoqda⁶.

2023–2024-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish bo'yicha ham qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Qurilish jarayonining turli bosqichlarida yuzaga keladigan nomuvofiqliklar qurilish muddatlarining kechikishiga olib kelishi mumkin. Natijada qurilish-montaj tashkilotlari rejali topshiriqlarni belgilangan me'yoriy muddatlarda bajara olmaydi.

Shunga qaramay, O'zbekiston Respublikasi qurilish majmuasi yuqori sur'atlar bilan rivojlanishda davom etmoqda.

Respublikada qurilish sohasining ahamiyatini oshiruvchi muhim omillar jumlasiga quyidagilar kiradi: mahalliy xomashyo asosida zamonaviy qurilish materiallarini joriy etish, boshqaruvning barcha darajalarida qurilish shakllari va usullarini takomillashtirish, qurilish-montaj ishlarida ilg'or texnologiyalarni qo'llash.

Elektr energiyasi elektr stansiyalarida sinxron generatorlar yordamida ishlab chiqariladi. Bu stansiyalar turli manbalardan olingan energiyani (mexanik, issiqlik, atom, suv, yorug'lik, shamol) elektr energiyasiga aylantirib beradi. Elektr stansiyalarining aksariyati faqat elektr energiyasini, ba'zilar esa elektr hamda issiqlik energiyasini ishlab chiqaradi. 3–24 kV kuchlanishda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi transformatorlar yordamida 35–500 kV kuchlanishga ko'tarilib, havo elektr uzatish liniyalari orqali iste'molchilarga yetkaziladi.

Elektr energiyasi iste'mol qilinayotganida u mexanik, issiqlik yoki yorug'lik energiyasiga aylanadi. Bu jarayonda ma'lum darajada energiya yo'qotilishi ro'y beradi. Yo'qotish miqdori elektr qurilmalarning (generator, motor, uzatish liniyalari) samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Qurilmalarning foydali ish koeffitsienti (FIK) qancha yuqori bo'lsa, u shuncha tejamkor hisoblanadi.

Qurilishda energiya samaradorligini oshirish maqsadida elektr uzatish liniyalari, transformator punktlari, komplektli taqsimlash qurilmalari (KTP), zamonaviy avtomatika va himoya tizimlari joriy qilinmoqda. 380/220 V kuchlanishdagi tizimlar sanoat va yoritish vositalari uchun mos bo'lib, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. 6 kV va 10 kV kuchlanishdagi tizimlar esa kichik quvvatli (1–5 MVt) korxonalarda keng qo'llaniladi.

Qurilish sohasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri – tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishdir. Qurilishni tashkil etish markazlashtirilgan manbalar va hukumat kafolatlari asosida jalb qilingan investitsiyalar hisobiga olib boriladi. Bu esa qurilish obyektlarini moliyalashtirish, qurish va foydalanishga topshirish jarayonida buyurtmachi va pudratchilar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlaydi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining izchil rivojlanishi qurilish majmuasining mamlakat milliy iqtisodiyot tizimidagi rolini oshirishga munosib hissa qo'shmoqda.

6 <https://lex.uz/uz/docs/-6380177?ONDATE=10.02.2023%2000> 2023–2024-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqola O'zbekistonning qurilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarini tahlil qilib, texnologik, iqtisodiy va tashkiliy yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Qurilishning samarali rivojlanishi uchun yuqori kuchlanishli elektr energiyasini ishlab chiqarish va uzatish tizimlarining mukammalligi alohida ahamiyatga ega. Qurilish materiallari sifatini oshirish, energiya isrofi va foydali ish koeffitsientini yaxshilash borasidagi izlanishlar izchil davom ettirilmoqda.

Qurilish sektorining milliy iqtisodiyotdagi o'rnini sezilarli darajada ortib bormoqda va bu o'sish yuqori texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish, hamda infratuzilmani takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, qurilish bozorida raqobatni kuchaytirish, narxlar strategiyasini yaxshilash va tender tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini ko'rish muhim hisoblanadi.

O'zbekistonning qurilish sohasidagi rivojlanish jarayonlari mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada sohada yuzaga kelayotgan muammolar – xususan, texnologik yangilanishlarning sustligi, qurilish jarayonlarining samaradorligi pastligi va investitsiyalarni jalb qilishdagi qiyinchiliklar batafsil tahlil etildi.

Qurilish tashkilotlarining ishlab chiqarish samaradorligi, elektr energiyasini ishlab chiqarish va uzatish tizimlarining takomillashuvi sohadagi muhim omillardan biri sanaladi. Qurilish sohasida normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada moslashmaganligi, qurilish-montaj ishlari sifatining pasayishi va qurilish tashkilotlari o'rtasidagi muvofiqlikning sustligi kabi muammolarni bartaraf etish uchun qat'iy chora-tadbirlar zarur.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish va samarali boshqaruvni ta'minlash – qurilish xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va sohadagi isroflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va bozor talablariga moslashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini yaratadi.

Qurilish sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun investitsiyalarni keng jalb qilish, innovatsion yechimlarni tatbiq etish, mehnatkashlarning ijodiy g'ayratini rag'batlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash zarur.

Shuningdek, davlat va xususiy qurilish tashkilotlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni kuchaytirish, yuqori texnologik standartlarga javob beradigan qurilish materiallari va ilg'or qurilish uslublarini joriy etish orqali O'zbekiston qurilish sohasining raqobatbardoshligini oshirish va uni xalqaro bozorga samarali olib chiqish mumkin.

Sohani yanada rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlanmalarni kengaytirish bilan birga, sifat menejmenti tizimlarini joriy etish, yuqori samaradorlikka ega uskunalar va texnologiyalardan foydalanish muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha izchil harakatlar qilinsa, O'zbekiston qurilish sohasida yuqori natijalarga erishishi, iqtisodiyotning real sektori bilan integratsiyalashuvi va xalqaro maydonda kuchli pozitsiyaga ega bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni.
3. Statistika: www.stat.uz
4. <https://invexi.org/uz/press/investments-in-fixed-capital-for-2022-in-the-republic-of-uzbekistan-amounted-to-about-270-trillion-soums/>
5. <https://lex.uz/uz/docs/-6380177?ONDATE=10.02.2023> – 2023–2024-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>